

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdukamol Abdurahimovich MAMADALIYEV

Bosh mutaxassis

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va mehnat bozoriga tayyorlash bo'limi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

Toshkent, O'zbekiston

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПРОФОРИЕНТАЦИИ ШКОЛЬНИКОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Абдукамол Абдурахимович МАМАДАЛИЕВ

Главный специалист

Отдел профориентации учащихся и подготовки к рынку труда

Министерство дошкольного и школьного образования

Ташкент, Узбекистан

IMPROVING THE MECHANISMS OF VOCATIONAL GUIDANCE FOR SCHOOLCHILDREN IN GENERAL EDUCATIONAL SCHOOLS

Abdukamol Abdurahimovich MAMADALIEV

Chief Specialist

Department of Career Guidance of Students and Preparation for the Labor Market

Ministry of Preschool and School Education

Tashkent, Uzbekistan abdukamol2031@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 37.047

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Mamadaliyev A. A. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining qiziqishlarini aniqlash va kasbga yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (51). — B. 87-98.

<https://doi.org/10.36078/1687761685>

Received: May 11, 2023

Accepted: June 17, 2023

Published: June 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish borasida olib borilayotgan ishlar, erishilgan natijalar, mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarni qiziqishlarini aniqlash va kasbga yo'naltirish bo'yicha Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya davlatlari tajribalari o'rganilgan. O'rganish va tahlil natijalari asosida O'zbekiston uchun mos bo'lgan yangi elektron tizim — "Individual tashxislash tizimi"ni yaratish taklif etilgan. Tizim orqali o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish bo'yicha tizimli monitoring olib borish ko'rsatilgan. Mazkur platformani ishga tushirishda erishiladigan natijalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: umumiy o'rta ta'lim maktabi; kasb-hunarga yo'naltirish; platforma; tashxislash; mehnat bozori.

Аннотация. В статье освещается работа, проводимая в современных общеобразовательных школах по



Open Access

определению интересов учащихся, ориентирование их на профессию, рассказывается о достигнутых результатах, существующих проблемах и задачах, которые необходимо реализовать. В ходе исследования был изучен опыт Великобритании и России по определению интересов учащихся и ориентации их в профессию. По результатам изучения и анализа было предложено создать новую электронную систему, подходящую для Узбекистана, – «Систему индивидуальной диагностики». Через систему вводится систематический контроль за определением интересов учащихся и направлением их в профессию. Также полностью указаны результаты, которых можно достичь при запуске данной платформы.

Ключевые слова: общеобразовательная школа; профориентация; платформа; диагностика; рынок труда.

Abstract. This article, today's general secondary education schools highlight the work carried out to determine the interests of students, guide them to the profession, the achieved results, the existing problems and the tasks to be performed. In the course of the research, the experiences of Great Britain and Russia were studied in determining students' interests and directing them to the profession. Based on the results of study and analysis, it was proposed to create a new electronic system suitable for Uzbekistan - "Individual diagnosis system". Systematic monitoring of determining students' interests and directing them to the profession is indicated through the system. The results that can be achieved when launching this platform are also fully specified.

Keywords: general secondary school; career guidance; platform; diagnosis; labor market.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda 10 104 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida 6,2 million nafardan ortiq o'quvchilar ta'lim-tarbiya olmoqda. Ularning 2,5 millionidan ortig'i boshlang'ich sinflarda, 3,7 millioni 5–11-sinflarda o'qiydi. Har yili o'rtacha 400-500 ming nafar o'quvchilar umumta'lim maktablarining 11-sinfini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Ularni hayotga tayyorlash, hayotda o'z o'rnini topishlari uchun zarur ko'nikmalarni berish nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyat rivojiga mas'ul bo'lgan barcha boshqa sohalar oldida turgan eng muhim vazifadir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar xalqaro va mamlakatimiz olimlari: Noel Mvenda, Sh. S. Sharipov, B. S. Volkov, N.S.

Pryajnikov, V.A. Mansurov, O. V. Yurchenko, S. N. Chistyakova, E. V. Gudkova, A. S. Skutin, R. G. Isyanov, S. B. Umarov, P. Q. Xolmatov, D. M. Anvarova, P. S. Ergashev, A. A. Xasanovlar tomonidan olib borilgan. O'quvchilarni kasb-hunarga maqsadli yo'naltirishning hududiy xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar V. A. Orlov, P. F. Anisimov, O. A. Xaydarov, G. F. Shafranov-Kutsev, S. N. Tolstoguzov, Q. X. Abdurahmonov, N. K. Zokirova, Z. Y. Xudoyberdiyev, K. A. Eshpo'latov, N. R. Ashurovlar (2, 4) tomonidan olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5140-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni 1-ilovasi 22-23-bandi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son Qarori 7-bandlariga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajak kasblarini aniqlash, mamlakatdagi aktual kasblar bo'yicha ma'lumot taqdim etish, psixologik testlar orqali kasbiy tashxis qo'yishni tizimli tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 792-son Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi (1).

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining qiziqishlarini aniqlash orqali ularga individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish bo'yicha zamonaviy onlayn platforma yaratishdan iborat. Platforma orqali o'quvchilarning temperamenti, intellektual, emotsional rivojlanishi, iste'dodi, qiziqishlari o'rganilib, ularga mos bo'lgan kasblarni tavsiya etish, mazkur kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish, zamonaviy kasblarni o'rgatish bo'yicha onlayn o'quv kurslarini tashkil etish nazarda tutilgan.

Asosiy qism. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 20 foizini yoshlar tashkil qiladi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 60 foizdan ortiqroq. Yurtimizda aholi soni kundan kunga ko'payib bormoqda. 2022-yilda aholimiz 35 millionga (2022-yil 31-may holatiga ko'ra 35,271,300 nafar) yetdi. Doimiy aholi soning 31,1 foizini mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,0 foizini mehnatga layoqatli yoshdagilar, 10,9 foizini mehnatga layoqatli yoshdan kattalar tashkil etmoqda (8). Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2020-yilda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston ta'lim indeksi bo'yicha dunyoning 189 ta mamlakatlari orasida 71-o'rinni egallamoqda. Qo'shni davlatlar orasida Tojikiston (96-o'rin), Turkmaniston (111-o'rin), Afg'oniston (170-o'rin) davlatlaridan yuqori o'ringa ega bo'lsa-da, Qirg'iziston (70-o'rin), Qozog'iston (35-o'rin) davlatlaridan bir muncha ortda ekanligini ko'rsatmoqda (5).

Tadqiqot natijasida yaratilgan **O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, ularning kelajakda munosib kasb egasi bo'lishlariga ko'maklashishga qaratilgan elektron "Individual tashxislash tizimi" (kasb.maktab.uz) yagona platformasi** bo'yicha nufuzli, ilg'or davlatlarning tajribalari o'rganilib, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlari tahlil qilingan. O'rganish va tahlil natijasiga ko'ra, yangi tizim orqali o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish, kelgusida hayotga tayyorlashning yangi innovatsion yechimlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi (1-rasm).



1-rasm.


Tadqiqot natijasida yaratilayotgan tizimda quyidagilar ustuvor yo'nalishlar sifatida qabul qilindi:

— o'quvchilarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash;

- umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish;
- maktab bitiruvchilariga kelajak kasbini tanlashda ko'maklashish;
- bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun davlatimizda va butun jahonda aktual kasblar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish;
- o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va emotsional holatini monitoring qilish;
- o'quvchilarning ijtimoiy faolligi (jinoyatga moyillik darajasi, suitsid xavfi, zo'ravonlik va tazyiq)ni aniqlash;
- o'qituvchi va o'quvchilarga tezkor onlayn psixologik yordam ko'rsatish;
- kasb-hunarga yo'naltiruvchi yagona elektron platformani mavjud platformalar bilan integratsiya qilish, statistik ma'lumotlar oynasini yaratish hamda doimiy monitoring qilish;
- o'quvchi shaxsning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi hamda undagi tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning shakllanishiga zamin yaratish (2-rasm).

Test natijasi

PDF saqlash Ulashish



2-rasm.

Platformadan foydalanish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablari, farzand tarbiyasi uchun bevosita mas'ul bo'lgan otalar hamda bilvosita mas'ul bo'lgan keng jamoatchilik bilan hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi:

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini psixologik hamda IQ-testlar o'tkazish orqali kasbga yo'naltirish;
- bitiruvchi sinf o'quvchilarini davlatimizda va butun jahonda aktual kasblar ("Kasblar Atlasi") to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish;
- respublika bo'ylab umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbga yo'naltirishga oid ma'lumotlarini tizimlashtirish va monitoring qilish;
- kasbiy qiziqish va qobiliyatlariga ko'ra, mos to'garak yoki onlayn ta'lim manbalariga yo'naltirish orqali yetuk shaxslarni tarbiyalash (3-rasm).

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda 4 ta asosiy komponentlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

1. O'quvchilarga zamonaviy kasblar haqida tushunchalar berish.
2. O'quvchilar qiziqishlari, qobiliyati va kasbga moyilligini aniqlash bo'yicha test.
3. Mehnat bozori haqida ma'lumot berish.
4. Kasbga yo'naltirish bo'yicha amaliy tadbirlar (ekskursiya, soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar va boshqalar).

O'quvchilarga zamonaviy kasblar to'g'risida tushunchalar berish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan 18 ta umumta'lim fanlari bo'yicha Milliy o'quv dasturlari doirasida 1-11-sinflar uchun yaratilayotgan darsliklarga 302 ta kasbga oid mavzular kiritilgan.

O'quvchilar qiziqishlari, qobiliyati va kasbga moyilligini aniqlash, mehnat bozori haqida ma'lumotlar berib borish bo'yicha biz bugun tilga olayotgan "Individual tashxislash tizimi" (kasb.maktab.uz) yagona platformasi yaratilgan.

2022–2023-o'quv yilining oktyabr-dekabr oyida respublikadagi barcha umumta'lim maktablarining 9–11-sinf o'quvchilarining kasbga bo'lgan qiziqishlari hamda ta'limdan keyingi faoliyatini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazilgan.

So'rovnomada 554 ming nafar 9-sinf, 385 ming nafar 11-sinf o'quvchilari ishtirok etgan.

9-sinf. O'quvchilarning 76 % i (423 ming nafar) maktabda, 14 % i (73 ming nafar) kasb-hunar maktablarida, 10 % i (58 ming nafar) akademik litseylarda o'qish istagini bildirgan.

11-sinf. Bitiruvchilarning 86 % i (331 ming nafar) oliy ta'lim muassasasiga, 9% i (33 ming nafar) kollej va texnikumda o'qish, 5 % i (21 ming nafar) ishlash istagini bildirgan. Bitiruvchilarning

27% i (89 ming nafar) ta'lim, 12 % i (39 ming nafar) sog'liqni saqlash, 11 % i (37 ming nafar) AKT, 11 % i (37 ming nafar) iqtisodiyot, 10 % i (33 ming nafar) tadbirkorlik, 9 % i (30 ming nafar) ijtimoiy gumanitar, 6 % i (21 ming nafar) qurilish, 14 % i (45 ming nafar) qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, san'at va boshqa sohalarda o'qish istagini bildirgan.

Kasb va mutaxassislarning mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida o'quvchilar uchun soha mutaxassislari bilan uchrashuv va sayyor darslar tashkil etilishi yo'lga qo'yilib, 2022-yil davomida 9–11-sinf o'quvchilarini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va agrotexnologiya yo'nalishidagi korxona va tashkilotlarga 34 mingga yaqin ekskursiyalar tashkil etilgan.

Umumta'lim maktablarining bitiruvchi o'quvchilarini kasbga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida respublikamizdagi 270 ta professional ta'lim muassasalarida "Kasb va yoshlar" ochiq muloqot oyligi o'tkazilib, unga 404 989 nafar o'quvchilar jalb etilgan.

Shu o'rinda mazkur tadqiqot olib borish jarayonida bir nechta jahonning ilg'or davlatlari tajribalari o'rganib chiqildi. Rivojlangan davlatlarda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish, bepul kasbga yo'naltiruvchi platformalar va saytlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalar etib belgilangan.

Jumladan, ta'limning boshqaruv shakllariga ko'ra O'zbekistonga yaqin bo'lgan Rossiya Federatsiyasining tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarini ish bilan ta'minlash ularni o'z qiziqishlari darajasida kasbga yo'naltirish hamda hozirda mavjud bo'lgan va ehtiyoji baland kasblar to'g'risida ma'lumot berish uchun bepul kasbga yo'naltiruvchi platformalar va saytlar mavjud bo'lib, unda maktab o'quvchilari bevosita korxona va kompaniya egalari, ish beruvchilar bilan muloqot qilib, ular tarafidan taqdim etilgan savol va keyslarga onlayn tarzda javob berib o'z bilim va kasbga layoqatligini tekshirishi mumkin (6).

Germaniyada o'quvchilarni kasbga o'rgatish bo'yicha jahonda yetkachi davlatlardan hisoblanadi. Aholisining deyarli yarmi kamida bitta kasb-hunar egasi hisoblanadi.

Germaniya maktablarida kasbga yo'naltirish o'quvchilarni turli kasblar va mehnat turlari bilan tanishtirish, ularning moyilligi va qobiliyatiga muvofiq bo'lajak mutaxassislikni tanlashda yordam berishga asoslangan. Kasbga yo'naltirish o'quvchilar orasida test sinovlari, so'rovlar o'tkazish, korxonalarga ekskursiyalar tashkil

etish, turli kasb vakillari bilan suhbatlar va ota-onalar bilan birgalikdagi tadbirlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Kasbga yo'naltirishda o'quvchilar orasida "Ish daftari"ni yuritish amaliyoti joriy etilgan bo'lib, unda o'quvchi oilasi, shaxsiy qiziqishlari, orzulari, kasbiy qiziqishlari haqida umumiy ma'lumotlarni yozib boradi. O'quvchining akademik ko'rsatkichlari, uning test natijalari va "Ish daftari"dagi ma'lumotlar kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar olishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada "Gatsby" nomli vasiylik fondi 6 ta rivojlangan davlatlarning (Niderlandiya, Germaniya, Gongong, Finlyandiya, Kanada va Irlandiya) kasbga yo'naltiruvchi loyihalarini va amalga oshirayotgan tashabbuslarini o'rganib, britaniyaliklar uchun asosiy bo'lgan va samarali natija ko'rsatuvchi asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, Buyuk Britaniya o'quvchilari uchun yagona bo'lgan kasbga yo'naltiruvchi dastur ishlab chiqilgan bo'lib, dastur o'z ichiga hozirgi kundagi aktual kasblar haqida ma'lumotlar, psixologik testlar, ish beruvchi va oliy o'quv yurtlari rahbarlari bilan uchrashuvlar, ish beruvchi bilan muloqot va real rejimda o'z tanlagan kasbi bo'yicha vazifalarni bajarib o'ziga to'g'ri kelgan kasbni tanlash imkoniyatini yaratadi (7).

Buyuk Britaniyada tizimli kasbga yo'naltirishda 8 ta asosiy mezon mavjud bo'lib, ular quyidagicha:

1. Yagona, aniq va barqaror kasbga yo'naltirish dasturi. Viloyatdagi har bir maktab va kollej kasb-hunarga yo'naltirish va kasb-hunar ta'limining o'ziga xos dasturini tuziladi va amaliyotda qo'llaniladi. Dasturni o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar, hokimlar, ish beruvchilar bilishi va tushunishi kerak. Dasturni shakllantirishda ta'lim muassasasining o'zi eng katta rol o'ynaydi, chunki maktab o'z o'quvchilarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunadi.

2. Mehnat bozori haqidagi dolzarb ma'lumotlar. Har bir o'quvchi va uning ota-onasi kelajakdagi o'qitish imkoniyatlari va mehnat bozori imkoniyatlari to'g'risida yuqori sifatli ma'lumotlarga ega. Zamonaviy kasblar va bo'sh ish o'rinlari to'g'risida bilim olish va ulardan samarali foydalanish uchun o'quvchi ixtisoslashtirilgan kasbga yo'naltirish Internet-resursidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan ushbu ma'lumotni mutaxassis maslahatchidan oladi.

3. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish. Har bir o'quvchi yoshiga va individul fazilatlariga qarab kasbga yo'naltirish uchun har xil ehtiyojlarga ega. Ishga qabul qilish qo'llab-quvvatlanadi, hammaga moslashtirilgan. Dastur tenglik va xilma-xillikni o'zida birlashtirgan va shu bilan birga hamma undan foydalana oladi.

4. Ta'lim va kelajakdagi kasbiy faoliyat o'rtasidagi munosabatlar. Har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga o'rganish istiqbollari va uning kelajakdagi kasb uchun afzalliklarini aniq ko'rsatib bera oladi. Masalan, matematika fani o'qituvchilari sinfda uning mavzusi bo'yicha bilimlar foydali bo'ladigan turli xil mutaxassisliklar haqida ma'lumotlar beradi. Matematika analitik, iqtisodiyot, tilshunoslik, sotsiologiya, axborot texnologiyalari va boshqa soha mutaxassislari uchun, shuningdek, kundalik hayotda zarurligi haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi.

5. Ish beruvchilar va korxonalar xodimlari bilan uchrashuvlar. Har bir o'quvchi bevosita mutaxassislardan kasbiy ko'nikma, ish haqidagi bilimlarni oladi. O'quv dasturida korxonalarga ekskursiyalar, mutaxassislardan tomonidan ma'ruzalar va kasblar g'oyasini kengaytiradigan boshqa tadbirlar, masalan, loyihalarni ishlab chiqish yoki ustoz bilan ishlash uchun vaqt ajratilgan.

6. Professional amaliyot-ish joyining tajribasi. Har bir o'quvchi ish joyida bevosita ish tajribasini oladi. Kasbiy o'z taqdirini belgilashda yordam berish uchun maktab yoki kollej o'quvchiga tanlangan tashkilotda ishlash yoki ishni yetarlicha uzoq vaqt davomida kuzatish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, o'quvchi nafaqat kasbni amalda sinab ko'radi, balki ushbu yo'nalishda kasb qurish imkoniyatlarini o'rganadi va professional tanishlar qiladi.

7. Kasb-hunar va oliy o'quv yurtlari vakillari bilan uchrashuvlar. O'quvchilar uchun nafaqat kasbiy, balki ta'lim imkoniyatlarini ham tushunish muhimdir. Akademik ta'lim, kasb-hunar maktablari, kollejlari, universitet, malaka oshirish, qo'shimcha kurslar, ya'ni qiziqarli kasblar haqida o'zlariga qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

8. Muntazam ravishda kasb-hunarga yo'naltirish. O'quvchi professional maslahatchi (maktab yoki uchinchi tomon mutaxassisi) bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, o'qish yo'nalishini tanlash kerak bo'lgan paytlarda maslahatchi bilan suhbatlashish imkoniyati dolzarbdir. Professional maslahatchi

bilan muloqot barcha o'quvchilar uchun ochiq, mutaxassis har bir bolaga alohida vaqt ajratadi.

Buyuk Britaniya mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ko'p yillik tajriba to'plagan. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha asosiy ishlar professional maslahatchilar tomonidan amalga oshirildi.

Aynan, biz taklif etayotgan tizim ham mazkur davlatlar tajribasini o'rgangan holda, Germaniyada tashkil etilgan "Ish daftari"ning analogi sifatida elektron shaklda yaratilgan.

Yangi avlod bolalarining gadjetlar bilan hamnafas o'sishini inobatga olib hamda o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, ularning kelajakda munosib kasb egasi bo'lishlariga ko'maklashishga qaratilgan yagona elektron platformasining yanada rivojlantirish maqsadida uning mobil ilovasini yaratish ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijasida platformani yaratish orqali maktab o'quvchilarini vaqtini samarali o'tkazish, o'quvchilarga qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga ko'maklashish, bilimi va salohiyatidan kelib chiqqan holda kasbga yo'naltirish, umumta'lim maktab o'quvchilari orasida jinoyat va bezorlikni bartaraf etish hamda maktab bitiruvchilarini zamonaviy kasblarga yo'naltirishga erishiladi. Jumladan:

- bitiruvchilar mazkur platforma yordamida barcha soha kasblari bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'ladi;

- o'quvchilarning dunyoqarashi, shuningdek, kasbga bo'lgan bilim va ko'nikmalari ortadi, ularning kasb tanlashdagi salohiyatlari oshadi;

- o'quvchilarni maxsus testlar yordamida ularning qiziqish va qobiliyatlari, ruhiy va oiladagi holatini aniqlashga erishiladi;

- zamonaviy kasblar yo'nalishida o'quv kurslar bazasi shakllantiriladi;

- o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlarni sinf kesimida monitoringi amalga oshiriladi;

- o'quvchining barcha fanlar bo'yicha natijalarini aks ettirish maqsadida umumta'lim maktablari o'quvchilari bilimini baholash (kundalik.com) hamda maktablarni boshqarishning (erp.maktab.uz) elektron tizimlari bilan integratsiya qilish ta'minlanadi.

Tadqiqotning muhim samaradorligi bu mamlakatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash bilan bog'liq tadbirlarni yagona

platformada birlashtirib, natijalarni monitoring qilish va ularga asosan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun qarorlar qabul qilishda ko'maklashishdir.

Tadqiqotning ijtimoiy ko'rsatkichi o'quvchi-yoshlarni qiziqishlariga ko'ra yo'naltirib, erta moliyaviy mustaqillikka erishishlari orqali ularning o'zlariga bo'lgan ishonchlari, mavqei va tajribasini o'sishidir. Portalda turli forum va musobaqalar o'tkazish orqali o'quvchilar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish va motivatsiyalash. Bundan tashqari, jamiyatimizdagi jinoyatchilar va axloqsiz shaxslarni kamaytirish maqsadida yoshlarning bandligini oshirishga erishiladi.

Eng asosiysi, bitiruvchilarni kelajak kasbini aniqlashda yordam berish orqali mamlakatdagi ishsizlik va kambag'allik ko'rsatkichlarini kamaytirish. Yoshlarimizning yashab turgan hududidan qat'i nazar masofadan turib ishlab, yaxshi daromad topishlari uchun imkon yaratiladi. Natijada mehnat bozorida raqobat yanada kuchayib, kadrlar rivojlanishi orqali mamlakat rivojiga hissa qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни, ЎРҚ-637-сон, 2020 й. — URL: <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Усмонов А. Ўқувчиларни касб-хунарга мақсадли йўналтириш истиқболда меҳнат бозоридаги муаммоларни бартараф этишнинг муҳим омили. — URL: <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/download/4299/2918>
3. Саидов Б., Раджиев А. ва бошқалар, Касбга йўналтириш: муаммо ва ечимлар. Услубий қўланма. — Тошкент: А.Авлоний номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш илмий-тадқиқот институти, 2023.
4. Профориентационная работа: зарубежный опыт. — Ташкент: Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти, 2022, С.11.
5. <https://gtmarket.ru/ratings/education-index>
6. www.profguide.io
7. www.gatsby.org.uk
8. www.stat.uz

References

1. *Uzbekiston Respublikasining “Ta’lim tugrisida”gi qonuni*, URQ-637-son, 2020 (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", URQ-637, 2020), available at: <https://lex.uz/docs/5013007>

2. Usmonov A., *Uquvchilarni kasb-hunarga maqsadli yunaltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili* (Targeted privatization of workers to the profession is an important factor in overcoming problems in the labor market in the future), available at: <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/download/4299/2918>
3. Saidov B., Radzhiev A. va boshqalar, *Kasbga yunaltirish: muammo va echimlar* (Professional rejuvenation: problems and solutions), Tashkent, 2023.
4. *Proforientatsionnaya rabota: zarubezhnyi opyt* (Career guidance work: foreign experience), Tashkent: Yoshlar muammolarini urganish va istiqbolli kadrlarni taierlash institute, 2022, p.11.
5. <https://gtmarket.ru/ratings/education-index>
6. www.profguide.io
7. www.gatsby.org.uk
8. www.stat.uz